

## NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

*2016-2020 yillar 1- iyun holatiga ko'ra*

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

*(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)*



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

*(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)*

|  |  |               |                |
|--|--|---------------|----------------|
|  | <b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>                      | <b>28 663</b> | <b>115,1 %</b> |
|  | <b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>                | <b>27 799</b> | <b>115,0 %</b> |
|  | <b>Yangi tashkil etilgan korxonalar<br/>(2020-yilda)</b> | <b>2 620</b>  | <b>81,7 %</b>  |

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**15 828**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

**707**

Oilaviy korxona

**165**

Unitar korxona

**7 198**

Xususiy korxona


**29**

Aksiyadorlik jamiyat


**429**

Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxona



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(o'tgan yilga nisbatan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 23 578 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 897 ta, oilaviy korxonalar – 677 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 448 ta, aksiyadorlik jamiyatları – 26 ta, unitar korxonalar – 148 ta va boshqalar – 382 tani tashkil etgan.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-may oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yil yanvar-may oylarida 2 620 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,3% kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 839 ta, xususiy korxonalar – 515 ta, oilaviy korxonalar – 181 ta, muassasalar – 24 ta va boshqalar – 61 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 707 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 277 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 677 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 252 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 181 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga yoki 64,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 15 828 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 057 taga yoki 123,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 448 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 888 taga yoki 123,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 839 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 319 taga yoki 14,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 252 tani tashkil etib, ulardan 244 tasi yoki 96,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 72 taga yoki 40,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 25 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

|                          | Jami | shundan:        |                 |
|--------------------------|------|-----------------|-----------------|
|                          |      | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| Rossiya Federatsiyasi    | 51   | 39              | 12              |
| Qozog'iston Respublikasi | 11   | 8               | 3               |
| Qirg'iz Respublikasi     | 10   | 9               | 1               |
| Tojikiston Respublikasi  | 9    | 7               | 2               |

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 702 ta), Chust (2 266 ta), Namangan (1 981 ta), Uychi (1 795 ta) va To'raqo'rg'on (1 731 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 387 ta), Norin (1 308 ta) hamda Mingbuloq (1 212 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


|                   | Jami       | shundan:        |                 |
|-------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                   |            | Xorijiy korxona | Qo'shma korxona |
| Namangan viloyati | <b>244</b> | <b>86</b>       | <b>158</b>      |
| Namangan shahri   | 77         | 28              | 49              |
| Mingbuloq         | 6          | 4               | 2               |
| Kosonsoy          | 23         | 5               | 18              |
| Namangan          | 13         |                 | 13              |
| Norin             | 11         | 4               | 7               |
| Pop               | 23         | 7               | 16              |
| To'raqo'rg'on     | 19         | 9               | 10              |
| Uychi             | 18         | 3               | 15              |
| Uchqo'rg'on       | 6          | 4               | 2               |
| Chortoq           | 17         | 6               | 11              |
| Chust             | 19         | 10              | 9               |
| Yangiqo'rg'on     | 12         | 6               | 6               |

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (35,2 %), Chust (8,1 %), Namangan (7,1 %), Uychi (6,5 %), Kosonsoy (6,2 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Pop (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,0 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,3 %) tumanglar hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)




2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (20,4 %), Pop (11,0 %), Namangan (8,7 %), To'raqo'rg'on (8,1 %), Uychi (7,9 %), Chust (7,0 %), Kosonsoy (6,8 %), Norin (6,6 %), Mingbuloq (6,3 %), Uchqo'rg'on (6,3 %), Chortoq (5,8 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), tumanglari ulushiga ega.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 184 ta (jamidagi ulushi 40,0 %), Uychi 1 063 ta (6,9 %), Namangan 1 024 ta (6,6 %), Pop 963 ta (6,2 %), Chortoq 926 ta (6,0 %), Kosonsoy 920 ta (6,0 %), Chust 823 ta (5,3 %) va Yangiyo'rg'on tumani 807 ta (5,2 %), To'raqo'rg'on 745 ta (4,9%) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Mingbuloq 545 ta (3,5 %), Uchqo'rg'on 710 ta (4,6 %), Norin 738 ta (4,8%), tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni (2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-may oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (70 ta), To'raqo'rg'on (27 ta), Namangan shahri (21 ta), Uychi (17 ta), Yangiqo'rg'on (13 ta), tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Chust (3 ta), Norin (4 ta), Kosonsoy (5 ta), Mingbuloq (5 ta) tumanglari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71 230-84-96**